

**DARS MASHG‘ULOTLARIDA BOSHLANG‘ICH SINIF
O‘QUVCHILARINI KAHOOT MOBIL ILOVASI ORQALI BAHOLASH
USULLARI**

Namangan VPYMO‘M Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta

o‘qituvchisi, Namangan sh., O‘zbekiston Respublikasi

ilxomjon050783@gmail.com

Tel: 91-348-80-87

Namdu dostenti., PhD, M.Qo‘ldasheva taqrizi asosida

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni dars mashg‘uloti davomida kahoot mobil ilovasidan foydalanish orqali o‘quvchilarni fan bo‘yicha olgan bilimlarini aniqlash, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda bilimlarini yanada mustahkamlash yo‘llari bayon etilgan. Mobil ilovalar foydalanish asosida o‘quvchilarni topshiriqlarni qay darajada bajarilishini nazorat qilishi va bo‘shliqlarini aniqlash mumkin. O‘quvchilar berilgan test topshiriqlarini bajargan holda natijalarni darhol bilishlari mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: mobil ilova, mobil paket, Play Market, Kahoot, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, bilim, test, topshiriq, kutubxona, reyting, baholash, samaradorlik, qiziqish.

**METHODS FOR ASSESSING PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE
CLASS THROUGH THE KAHOOT MOBILE APPLICATION**

Nurmatov Ilxom Ismoilovich,

Senior Lecturer of the Department of Methods of Exact and Natural Sciences of

Namangan VPIMUM, Namangan, Republic of Uzbekistan

Annotation: This article describes ways to identify pupils' scientific knowledge, develop logical thinking skills and further consolidate their knowledge using the Kahoot mobile application during the lesson. Mobile apps can track pupil

progress and identify gaps based on their usage. Pupils will be able to find out the results immediately after completing the given test tasks.

Key words: mobile application, mobile package, Play Market, Kahoot, elementary, pupil, knowledge, test, task, library, rating, evaluation, efficiency, interest.

МЕТОДЫ ОЦЕНИВАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКЕ ЧЕРЕЗ МОБИЛЬНОЕ ПРИЛОЖЕНИЕ КАНООТ

Нурматов Илхом Исмоилович,

*Старший преподаватель кафедры методики точных и естественных наук
Наманганского ВПИМУМ, г. Наманган, Республика Узбекистан*

Аннотация: В данной статье описаны способы выявления научных знаний учащихся, развития навыков логического мышления и дальнейшего закрепления их знаний с помощью мобильного приложения Kahoot во время урока. Мобильные приложения могут отслеживать прогресс учащихся и выявлять пробелы в зависимости от их использования. Ученики смогут узнать результаты сразу после выполнения заданных тестовых заданий.

Ключевые слова: мобильное приложение, мобильный пакет, Play Market, Kahoot, элементарный, ученик, знания, тест, задание, библиотека, рейтинг, оценка, эффективность, интерес.

Kirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim – tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Mamlakatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim tizimini tashkil etish, umumiy o'rta

ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish, shuningdek, yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun multimedia dasturlarini yaratish bilan bog'liq vazifalar ta'kidlab o'tildi [1].

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ewa Zarzycka-Piskorz o'z ilmiy tadqiqot ishida o'quvchi talabalarning mavzuni o'rganish va mashq qilishga bo'lgan motivatsiyasi qanday ortib borayotganini va bu o'rganish usuli qanchalik samarali ekanligini kuzatish va baholashdan iboratligi, o'yinlashtirilgan ta'limning eng muhim omillaridan biri motivatsiya ekanligini ta'kidlab o'tgan [2].

R.Yu.Sarevning ilmiy tadqiqot ishlarida axborot texnologiyalari, xususan, Kahoot! mobil ilovasidan foydalangan holda ta'lim jarayonida o'yin daqiqalaridan foydalanish o'quvchi talabaning o'quv jarayoniga qiziqishini kuchayishi, motivatsiyasini oshirishi va qulay ta'lim muhitini yaratishi kabi masalalari o'rganilgan [3].

N. P. Bezrukova boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika, informatika, gumanitar va tabiiy fanlarni o'qitishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari haqida o'zining ilmiy tadqiqot ishida atroflicha o'rganilgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Hozirgi kunda telefon, planshet, kompyuter, smartfon kabi texnik qurilmalar kundalik hayotimiz, zavqimiz, muloqotimiz, balki ish va o'qishimizning ham ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar o'yin va o'quvchilarning motivatsiyasining ortishi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni

ko'rsatadi [2]. Shu bilan birga, o'qitish metodikasi ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga asoslanishi va samarali interfaol ta'lim muhitini yaratishi lozim [3].


Ta'lim dasturlarini yangilash yangi turdagi o'quv jarayonining modellarini ishlab chiqishni, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv dasturlarini yaratishni va yangi o'qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ta'limni individuallashtirish, har qanday o'quvchi dasturlar tomonidan belgilangan ta'lim minimumini to'liq olish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitlarni yaratish, shuningdek, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish orqali maktabda o'quv jarayonini yangi darajada tashkil etish imkoniyati mavjud [4].

Bugungi kunda ta'lim sharoitida mobil ilovalardan foydalanishni yo'lga qo'yish vazifasi paydo bo'ldi. O'quvchilar bilimni tekshirish usullaridan biri test hisoblanadi. Testlarning afzalliklari shundaki ob'ektivlik, tekshirish tezligi va ko'p sonli o'quvchilarni qamrab olishi, barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlarni yaratishi, bir vaqtning o'zida bir xil murakkablikdagi materiallar bilan amalga oshirilishidadir. Ushbu turdagi nazorat o'qituvchiga nafaqat ballarni, balki sinovdan o'tgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari to'g'risida shartli fikrni ham olish imkonini beradi [5].

Mobil qurilmalar foydalanib, dars paytida qisqa savol javoblarni o'tkazishga mo'ljallangan maxsus mobil ilova bilan ishlashni ko'rib chiqaylik. Bunday mobil ilovalardan biri **Play Market** mobil paketiga joylashtirilgan **"Kahoot"** ilovasidir. Ilova o'qituvchiga dars o'qish jarayonida dars bo'yicha tezkor savol - javob o'tkazish imkoniyatini beradi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan savol va javoblar auditoriyadagi ekranida namoyish etadi. O'quvchilar esa o'zlaridagi smartfon, planshet yoki kompyuterlari orqali berilgan savolning javobini belgilaydilar. Savol-javoblardan olingan so'ng natijalar auditoriyadagi ekranda aks etadi. Tizim onlayn rejimida ishlaydi. Ushbu savollarga berilgan javoblar natijasi mukofot tarzida


ballarga o'zgartiriladi. Keyin har bir savoldan keyin ekranda ballar reytingi ko'rinadi.

Kahoot ta'lim maqsadlarida samarali qo'llaniladi. Ilova qiziqarli dizayni, foydalanish uchun qulay interfeysga, o'z veb-saytiga ega (1-rasm).




1-rasm. kahoot.com saytining umumiy ko'rinishi

Login tugmachasi bosish orqali google.com dagi o'z shaxsiy akauntimizga kirib olamiz (2-rasm).




2-rasm. Kahoot platformasiga kirish oynasi

Creat tugmachasini bosilgandan so'ng, **Kahoot** bandini tanlaymiz (3-rasm)



3-rasm. Akaunt orqali kirilgandan so'ng paydo bo'ladigan oyna

Shundan so'ng quyidagi bo'lim hosil bo'ladi (4-rasm).



4- rasm. Test savollarni kirituvchi oyna

1-Topshiriq mavzusi kiritiladi


2-Test savoli yoziladi

3-Test savoli bo'yicha rasm, audio, video fayl yuklanadi

4-Test javoblari beriladi

5-Yangi test savolini qo'shish uchun xizmat qiladi.

Test savoli kiritib bo'lingandan keyin, quyidagi ketma-ketlik bajariladi (5-rasm).




5-rasm. Test savollarini sozlamalarini berish oynasi.

1-Test savoli vaqti beriladi


2-To'g'ri javob uchun ✓ belgisi qo'yiladi.

Qolgan savollar shu ketma-ketlikda kiritib chiladi hamda Save (saqlash) tugmachasi bosiladi (6-rasm).




6-rasm. Tuzilgan test savollarni saqlash oynasi.

Tuzilgan test savollaridan foydalanish uchun **Library** bo'limi tanlanib, u yerdan kerakli mavzuni ro'parasidagi **Start** tugmachasi bosiladi (7-rasm).



7-rasm. Kahoot ilovani ishga tushirilgan holati

O'quvchi planshetdagi **Enter PIN** orqali mobil ilova bergan raqamni kiritib **Enter** tugamachasi bosadi, shundan so'ng o'z ismini yozgan holda test savollariga qatnashadi (8-rasm).



8-rasm. Kahoot ilovadan foydalangan holda nazorat topshiriqlarni o'tkazish oynalari

Kahoot mobil ilovasidan foydalanish o'qituvchi uchun darsni qiziqarli, rang-barang qilishning qulay va sodda usuli bo'lib, unga tayyorgarlik ko'p vaqt talab qilmaydi. Nazorat ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dars mashg'ulotlarida Kahoot mobil ilovasi orqali o'quvchilarning bilim darajani aniqlash mumkin. Ta'lim jarayonida mobil ilovalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar uchun quyidagi qulayliklarni yaratadi:

- Sinfdagi muhitni yengillashtiradi;
- Xursandchilik hissiyotini uyg'otadi;

- Charchoqni oldini oladi;
- Motivatsiya va e'tiborni kuchaytiradi;
- O'quv jarayoniga qiziqishni oshiradi;
- Maqsad sari intilishni oshiradi;
- O'quv jarayoni qiziqarli tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Mobil ilovadan foydalanish hamkorlikdagi o'quv muhitini yaratish, bu o'zining raqobatbardoshligi tufayli o'quvchilarni yanada yaxshi natijalarga erishishga undaydi, o'z bilimlarini sinab ko'rish jarayoniga qiziqish uyg'otadi. Kahoot mobil ilovasini o'rganish juda oson, shuning uchun undan o'quvchilarning o'rganilayotgan fan bo'yicha umumiy malakasini shakllantirish uchun baholash vositasi sifatida samarali foydalanish mumkin. Kahoot mobil ilovasi dars maqsadiga erishish va fanlarni o'rgatish yo'lida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabrda "O'zbekiston -2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni
2. Zarzycka-Piskorz "E. Kahoot it or not?: Can games be motivating in learning Grammar?" Teaching English with Technology. - 2016.
3. Царев Р.Ю. "Применение Kahoot! при геймификации в образовании" International Journal of Advanced Studies. 2017. № 1. 9 - 17 sahifalar.
4. Н. П. Безрукова "Цифровые образовательные ресурсы в школе: методика использования" Начальная школа: сборник учебно-методических материалов для педагогических вузов. Москва: Университетская книга, 2008.
5. Л. П. Солонцова "Современная методика обучения иностранным языкам"— Алматы: Эверо, 2015. 208 sahifa.
6. kahoot.com